

standartlarini keng joriy etish, kredit reyting tizimlarini rivojlantirish va korporativ boshqaruv amaliyotini takomillashtirish orqali investor ishonchini mustahkamlash. Investorlar uchun “bir darcha” tamoyilini institutsional darajada mustahkamlash – investitsiya jarayonidagi ma’muriy to’siqlarni qisqartirish, raqamlashtirilgan xizmatlarni kengaytirish va investitsiya jarayonining vaqt xarajatlarini kamaytirish.

Moliya bozori infratuzilmasini takomillashtirish O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning hal qiluvchi institutsional omili hisoblanadi. Bank sektorini Bazel tamoyillariga moslashtirish, kapital bozori chuqurligini kengaytirish va shaffof moliyaviy muhit yaratish investitsion riskni kamaytiradi hamda investorlar tomonidan talab etiladigan risk priyomini pasaytiradi. Natijada, xorijiy investitsiyalar oqimi nafaqat hajm jihatidan, balki sifat jihatidan ham barqarorlashadi va yuqori qo‘shilgan qiymatli sohalarga yo‘naltiriladi. Demak, xorijiy investitsiyalar strategiyasi moliya bozori rivoji bilan uzviy uyg‘unlikda amalga oshirilgandagina mamlakatning uzoq muddatli, barqaror va inklyuziv iqtisodiy o‘sishi uchun mustahkam asos yaratiladi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:***

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.* – Toshkent, 2022.
2. *North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
3. *Basel Committee on Banking Supervision. Core Principles for Effective Banking Supervision.* – Basel: Bank for International Settlements, 2012 (rev. 2019).
4. *International Monetary Fund; World Bank. Financial Sector Assessment Program (FSAP): Uzbekistan.* – Washington, 2023.
5. *World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: New Sources of Growth.* – Washington, 2024.
6. *UNCTAD. World Investment Report 2024.* – Geneva: United Nations, 2024.
7. *O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.*

## **HUDUDLAR INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA‘MINLASH**

***J.A.Ismatullayev***  
*QarshiDU dotsenti*

Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi va uning mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash bevosita iqtisodi-yotning barcha sektorlarida yuqori darajadagi iqtisodiy o‘shishga erishish lozimligini nazarda tutadi. Shu bilan birgalikda, texnologik va innovatsion yetakchilikni qo‘lga kiritish, ijtimoiy sohadagi jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta‘minlash ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Yuqoridagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish ko‘p jihatdan ma‘lum hududlarda erishilgan samarali natijalar bilan belgilanadi. Mamlakatning strategik rivojlanish

maqsadlariga erishish, avvalambor, ushbu maqsadlarga mintaqalar dara-jasida milliy ahamiyatga molik infratuzilma loyihalarini amalga oshirilishi lozim-ligini anglatadi.

Bunda mintaqalar investitsion jozibadorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish masalasi o'ziga xos dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday shakldagi mexanizmni hamda uning amalga oshirilishi vositalarini ishlab chiqilishi mintaqalarning ichki iqtisodiy salohiyatiga asoslangan raqobat ustun-liklarining shakllantirilishi asosida mintaqalar salohiyatining oshirilishiga imkon beradi.


An'anaviy tarzda mintaqqa investitsion jozibadorligining shakllanishi va oshishiga imkon beradigan quyidagi omillarni ajratish mumkin, jumladan: iqtisodiy barqarorlik, infratuzilma, yuqori malakaga ega sifatli ishchi kuchi, regulyatorlik muhiti, mintaqaviy hokimiyat vakillari tomonidan taklif qilinadigan soliq imtiyozlari va rag'batlantiruvchi dasturlar, tabiiy xomashyo resurslari, hayot kechirish sifati (aholi farovonligi), savdosiyoq bozorlariga geografik jihatdan yaqinlik, ishbilarmonlik muhiti.

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va eko-logik jarayonlar mintaqalar investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan inno-vatsion asosdagi yangi rivojlanish mexanizmlarini shakllantirish zarurligini anglatadi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasining nisbatan pastligi va boshqaruvning eski usullarga tayanilganligi mintaqalar raqobatbardoshligining pasayishiga sabab bo'ladi. Mintaqalar investitsion jozibadorligini oshirilishi bilan bog'liq ko'pgina davlat dasturlari, qaror va farmonlar, me'yoriy-huquqiy asoslar-ning qabul qilinganligiga qaramasdan ularning amalga oshirilishi ba'zi mintaqalar investitsion jozibadorligini oshirilishi bo'yicha kutilgan natijalarni kuzatish imkoni-ni bermayapti. Bu esa joriy davlat boshqaruv mexanizmining bir qator mintaqalarda investitsion faoliyatning yuqori darajalarga erishilish imkoniyatlarini rag'batlantirmayotganligini aks ettiradi.

Zamonaviy shart-sharoitlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish va rivojlanish uchun mintaqalarda jamiyatda samarali foydalanishga moslashtirilgan, yuqori bilim darajasi va so'nggi ilm-fan yutuqlariga asoslangan hududiy rivojlanishni boshqarishning yangi texnologiyalariga zaruriyat mavjud. Bu esa mintaqalar va umuman mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi. Buning uchun, albatta, mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishning innovatsion shakliga va hududlar va ulardagi resurslardan samarali foydalanishga asoslangan yangi texnologik asosni shakllantirish lozim hisoblanadi.

Mintaqalarni boshqarishga oid masalalar mintaqalarni rivojlantirish yuzasidan maqsadlarning belgilanishi va erishilishi jarayonida yuzaga keladigan turli xil tizimlarni shakllantiruvchi muammolarni yechimi bilan bog'liq hisoblanadi. Mintaqaviy tizimni boshqarishning asl mohiyati mintaqaviy tuzilmalarning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi, barqarorligi va dinamikasi, rivojlanishning moddiy va ma'naviy tomonlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni muvaffaqiyatli yechimini topishdan iborat. Mintaqa iqtisodiyotini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun doimiy ravishda yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va korxonalarining innovatsion faolligini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirib borish lozim hisoblanadi.

Mintaqa investitsion jozibadorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi – qulay investitsion muhitni yaratishga, salohiyatli investorlarni jalb qilish va mintaqqa investitsion faolligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning yig'indisini o'zida ifodalaydi.



**1-rasm. Hudud investitsion jozibadorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi<sup>39</sup>**

<sup>39</sup> Muallif ishlanmasi

Bu masala ko'pchilik mintaqalar uchun, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirish bilan bog'liq muammolarga duchor bo'lgan mintaqalar uchun o'ta dolzarb hisoblanadi. Muammolar tarkiban bir qancha jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi, jumladan, ular-dan biri – mintaqaning joriy paytdagi investitsion muhiti holatining tahlili hisoblanadi. Buning uchun iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlari tadqiq qilinadi, infratuzil-maning, soliq hamda uning huquqiy asoslarning mavjudligi, yetarli darajadali, raqobat darajasi va hokazolar tahlil qilinadi.

*Ikkinchi jihati* – mintaqadagi investitsion sohani rivojlantirish bilan bog'liq strategik maqsad va vazifalarni belgilab olish. Bularga investitsiyalar hajmini oshirish, investitsiyalash yo'nalishlarini kengaytirish, investorlarga taqdim qilina-digan xizmatlar sifatini yaxshilash, yangi ishchi o'rinlarini yaratish va hokazolar kiradi.

Shu bilan birgalikda mintaqa investitsion jozibadorligini oshirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish masalasi tarkibiga belgilangan maqsadlarga erishish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan vositalar va mexanizmlarni tanlashni ham kiritish lozim. Bular qatoriga subsidiyalash, soliq imtiyozlari, maxsus iqtisodiy hududlarni yaratish, investitsion fondlarni jalb qilish va hokazolarni kiritish mumkin. Investitsiyalarning mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishning asosiy manbasi ekanligi muammoning dolzarb ekanligini ifoda-laydi. Bundan tashqari zamonaviy global iqtisodiyot investitsiyalarni samarali jalb qilish borasidagi mintaqalar o'rtasidagi yuqori raqobat darajasi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham investitsion jozibadorlikni oshirishning samarali mexanizmini ishlab chiqilishi mintaqaning muvaffaqiyatli ravishda rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit hisoblanadi. Quyidagi 1-rasmda mintaqa investitsion jozibadorligini oshirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tuzilishini ishlab chiqdik. Mintaqa investitsion jozibadorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining samarali faoliyat qilishi natijasida mintaqa iqtisodiyotiga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish, ishlab chiqarish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, mintaqa aholisi farovonligini oshirilishiga erishish asosiy maqsad hisoblanadi.

Mintaqa investitsion jozibadorligini oshirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining samarali faoliyat ko'rsatishi mintaqaning sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida investitsion faollikni oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratilishiga imkon beradi va o'z navbatida, mintaqa aholisining hayot kechirish darajasi va sifatining oshirilishiga va texnologiyalar transferining jadallashishiga imkon beradi. Mintaqa investitsion jozibadorligini oshirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish va joriy qilish miqyosida yuqorida belgilangan maqsadlarga erishish uchun qator istiqbolli vazifalarni ajratib ko'rsatish lozim.

Muhim vazifalar sifatida mintaqaga investitsiyalarni erkin ravishda olib o'tish imkonini beradigan me'yoriy-huquqiy asoslarni yaratish, do'stona munosabdagi mamlakatlar, salohiyatli investorlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda mintaqa sanoat korxonalarining texnik-texnologik darajalarini oshirish uchun shart-sharoit yaratish va hokazolarni keltirib o'tish mumkin.

Shu bilan birgalikda innovatsion shakldagi sanoat ishlab chiqarishini jadallashtirish hamda ekologik jihatdan xavfsiz ishlab chiqarishni rivojlantirish lozim. Innovatsion shakldagi sanoat ishlab chiqarishi talablariga mos ravishdagi mehnat resurslarining sifatini ta'minlash uchun kasbiy va oliy ta'lim tizimini rivojlantirish miqyosida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Qo'shni (xorijiy) mamlakatlar bilan integratsion munosabatlarni chuqurlashtirish masala-larining

samarali yechimining topilishi ham juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shunday qilib, yuqorida ta’kidlab o’tilgan masalalarning muvaffaqiyatli yechim topishi mintaqalarda investitsion faoliyatning rivojlanishi uchun qulay muhitning yaratilishiga, aholining hayot kechirish sifat darajasining yaxshilanishiga va texnologiyalar transferining jadallashtirilishiga ko’maklashadi.

## **HUDUDLAR BARQAROR RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASHDA ESG TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN MOLIYA BOZORI RIVOJLANISHINING AHAMIYATI**

***Ismatova Sevara Abdushukur qizi***

*TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi*

***Annotatsiya.*** Mazkur tezisda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida ESG-ga yo’naltirilgan moliya bozori mexanizmlarini joriy etish masalalari normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, xalqaro amaliyotning komparativ o‘rganilishi hamda konseptual modellashtirish asosida yoritilgan. ESG instrumentlarining ishlash mexanizmi va ularni bosqichma-bosqich joriy etish modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari barqaror moliyalashtirish vositalari hududiy investitsion jozibadorlikni oshirish, risklarni kamaytirish va kapital bozorini chuqurlashtirishga xizmat qilishini ko’rsatadi.

***Kalit so‘zlar:*** ESG, barqaror moliya, yashil obligatsiyalar, kapital bozori, hududiy rivojlanish, investitsion jozibadorlik, barqaror iqtisodiyot.

Global moliya tizimida ESG tamoyillariga asoslangan kapital oqimlari so‘nggi o‘n yillikda sezilarli darajada kengaydi. Global Sustainable Investment Alliance ma’lumotlariga ko‘ra, barqaror investitsiyalar hajmi trillionlab dollar miqyosiga yetgan va ular global boshqaruv ostidagi aktivlarning muhim qismini tashkil etmoqda. Bu tendensiya investorlar uchun ekologik va ijtimoiy risklarni inobatga olish moliyaviy natijadorlik bilan uzviy bog‘lanayotganini ko’rsatadi.

Global barqaror moliya bozori dinamikasi ESG mexanizmlarining iqtisodiy asosini tasdiqlaydi. Global Sustainable Investment Alliance hisobotiga ko‘ra, 2020-yilda global barqaror investitsiyalar hajmi 35,3 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, bu 2016-yilga nisbatan qariyb 15 foiz o‘shishni anglatadi. 2022-yilgi hisobotga ko‘ra, ayrim hududlarda barqaror investitsiyalar ulushi umumiy boshqaruv ostidagi aktivlarning 30-50 foizigacha yetgan. Bu investorlar qarorlarida ESG omillari tizimli ahamiyat kasb etayotganini ko’rsatadi.

Yashil obligatsiyalar bozori bo‘yicha Climate Bonds Initiative ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda global yashil obligatsiyalar emissiyasi 500 milliard AQSh dollaridan oshgan, 2023-yil yakunlariga ko‘ra esa yillik emissiya hajmi 580 milliard dollarga yaqinlashgan. 2015-yilda bu ko‘rsatkich 50 milliard dollardan kam bo‘lganini hisobga olsak, sakkiz yil ichida bozor hajmi o‘n barobardan ortiq kengaygan.

International Capital Market Association tomonidan ishlab chiqilgan Green Bond Principles asosida chiqarilgan obligatsiyalar global yashil qarz bozorining asosiy qismini tashkil etadi. ICMA ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilga kelib yashil, ijtimoiy va sustainability turidagi obligatsiyalar umumiy emissiyasi 800 milliard dollardan oshgan.